

YOSH AVLODNING TARBIVASIDA XOREOGRAFIYA SAN'ATINING AXAMIYATI

Ashirova Nargiza Abdurashid qizi

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar "San'atshunoslik fanlari doktori" professor*

Tulaxodjayeva muhabbat Turabovna

Annotatsiya: *Ma'lumki, bolalar raqs jamoasi bilan ishlash bir qator ijrochilik va tarbiyaviy masalalarni yechilishi ko'zda tutiladi. Havaskorlik bolalar ansamblarining faoliyati bu borada professional jamoalar tomonidan qo'yilgan ish tamoyillariga tayansada, biroq o'zining xususiyatlari asosida rivoj topadi. Ushbu maqolada aynan bolalar xoreografiyasida xoreografiyaning o'rni haqida batafsil so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *raqs, harakat, holat, terapiya, raqs chizmalari, yosh kategoriyalari, musiqa, kompozitsiya.*

Raqsnı o'rgatish jarayoni bolalarda dadil ijodiy salohiyatni va badiiy rahbarlikni o'sishiga turtki bo'ladi. Raqs leksikasini o'zlashtirish orqali yoshlar nafaqat passiv holda go'zallikni idrok etishi balki, ma'lum qiyinchiliklarni yengib ushbu go'zallikni qo'lga kiritish uchun harakat qilishni taqozo etadi. Ijod jarayonida idrok etilgan go'zallik tufayli bolalar o'zga san'at turlari va hayotning barcha jabhalarida nafosatni chuqurroq his qiladilar. Qadimgi yunon faylasufi Demokrat [3.56] bu borada qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan edi: "Agar o'qimasa na san'at, na donishmandlikka erishish mumkin". Ya. A. Komenskiy [3.25] esa, insonda yoshlik chog'larida singib borgan narsalar mustahkam va kuchli bo'ladi deb yozadi.

Darhaqiqat, hozirda ushbu masalaga bag'ishlangan va xoreograf-baletmeysterlar tomonidan yillar davomida orttirilgan katta tajriba bevosita bolalar bilan ishlash jarayonida muqobil yo'llarni ishlab chiqishga undamoqda. Xususan, xoreografik jamoalar, raqs to'garaklari hamda maktablarda bolalarning badiiy tarbiyalanishida raqsning o'rni va mohiyatini yoritish, maqsad va vazifalarini belgilash, uslubiyotini ishlab chiqish, bolalar repertuarini shakllantirish kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy xoreografiya san'atida bolalar tabiati va imkoniyatidan kelib chiqib ular uchun maxsus ishlab chiqilgan, professional ta'lim mezonlariga javob beruvchi raqs harakatlarining katta va kichik miqdori

aniqlab berilgan. Xususan, milliy-sahnaviy, tarixiy-maishiy raqslar harakati yordamida rang-barang yuqori saviyali bolalar repertuarini yaratish mumkin. Shuningdek, professional uslubiyotida mavjud bo'lmagan biroq aynan bolalar bilan raqs saboqlarini o'zlashtirishda va samarali natijalarni beruvchi ma'lum qo'shimcha va uslubiy vositalar ham ishlab chiqildi.

Xoreografiya bo'yicha bolalarga ta'lim berayotgan jamoalar rahbarlari nafaqat ularning raqsga bo'lgan muhabbatini uyg'otish, chiroyli va jozibali raqs ijro etish, balki bu san'at tilini tushunishni o'rgatishi lozim bo'ladi. Shubhasiz, go'zallikka shaydo bo'lib qolgan inson esa hech qachon nopok, didsiz bo'lmaydi.

Bolalar ijro etgan raqslar mazmundor, badiiy va shu bilan birga sodda bo'lishi kerak. Raqslarni sahnalashtirish jarayonida, bevosita tanlangan milliy raqs an'analari bilan yaqindan tanishtirish lozim bo'ladi. Shunda xoreograf ularga nafaqat mexanik tarzda harakatlarni o'zlashtirish balki o'ziga xos xarakteri, ijro uslubini topa olishni ham ko'rsatishi darkor. Bolalar raqslari uchun tanlab, saralab olingan musiqiy asarlar, plastik harakatlar va sahnaviy liboslar, ularda tartib-intizom, badiiy did, musiqaviylik, ijodiy moyilligini rivojlantirgan holda har tomonlama jismoniy tetik bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga raqs orqali har bir bola o'zining ichki individual qirrasini namoyon etishga qodir bo'ladi.

Raqs san'ati serqirra va bepoyon, raqsga tushishni oz bo'lsada ishtiyoqi bo'lgan har bir bolakay yoki qizaloq uddalay olishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyatli, iste'dod egalarining soni, oddiy bolalarga nisbatan 1\1000 tashkil qilar ekan. Ammo ushbu fikrga javoban shuni unutmaslik lozimki, har bir bolada sirlangan iste'dod mavjud, uni faqat topib "olmos" kabi unga ishlov berib haqiqiy, noyob "gavharga" aylantirish darkor. Raqs deb atalmish ijod turida har kimga joy topiladi. Buning uchun pedagog (xoreograf, baletmeyster) har bir bolaning xarakterli tomonlarini avvalo kashf etib, aynan shu tomonlariga e'tiborni kuchaytirib, rivojlantirishi kerak. Ya'ni bolaning barcha imkoniyatlarini rivojlantirgan holda individual jihatlariga alohida urg'u berish ham o'ta muhimdir.

Bu borada biz bolalar raqs san'atining azaldan bajarib kelingan asosiy vazifalari doirasini ajratib olamiz:

- bolalarning ijodiy iste'dodini rivojlantirish, ularga ko'maklashish;
- ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini boyitish;
- o'zligini anglashga yordam berish;
- jamoaviy faoliyatning dadil ishtirokchisiga aylantirish;

– guruh va jamoada o'zini tutish, muloqot qurish kabi muhim jihatlari ko'nikmalarini oshirish.

Ma'lumki, bolalarning axloqiy tarbiyasi bilvosita raqslarni sahnalashtirish va repertuarni tanlash jarayonida ham amalga oshiriladi. Xususan, raqslar asosida yotgan axloqiy mezonlarni tahlil qilish, o'spirin yoshlar doirasida nojo'ya hodisalarga nisbatan tanqidiy baholash mezonlarini shakllantirishda ko'rinadi.

Bolalarning sahnaga chiqib o'z ijrolari uchun mas'uliyatni his qilishlari ham nihoyatda katta ahamiyatni ifoda etadi (ayniqsa, turli konsert va festivallar, tanlov va bayramlar, nafaqadagilar va nogironlar oldida chiqish qilish shular jumlasidan).

Yoshlarning ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish va o'sishi uchun xizmat qiluvchi xoreografiya o'z ichiga turli san'atlarni qamrab oladi. Xususan, xoreografiyaning asosini tashkil qilgan raqs – harakatlarni tashkillashtiruvchi shakldir. O'zga san'at turlaridan raqsga tuzilmaviy, assosiativ va umumiylik qonun-qoidalari bilan eng yaqin turgan san'at – musiqa. Biroq raqsning plastik va tasviriy tili vizual va aniqdir. O'zining yuqori ko'rinishida raqs – plastik musiqadir.

Bolalik axloqni shakllantirish davridir. Shu yoshda axloqiy asoslar qay darajada shakllantirilsa, bolalarning so'nggi axloqiy rivoji ham shunga bog'liq bo'ladi. Axloqiy tarbiya do'stlik, tinchlik va bolalar o'rtasida ahillik rishtalari asosida amalga oshiriladi. Bolalarning jamoada tarbiya topishi bu borada nihoyat katta ahamiyatga ega.

Jamoa – harakat qiluvchi tarbiya vositasi sifatida insonlar o'rtasida munosabatni shakllantirishga, o'zaro yordam berishga, bir-birini hurmat qilishga qaratilgandir. Jamoada bola o'z bilimi, ko'nikmalarini, o'zgalarga namoyon etishga, atrof muhit va faoliyatga nisbatan bo'lgan munosabatini aks ettirishga harakat qiladi, o'z mehri, shijoatini do'stlariga ko'rsata oladi.

Raqs maktablari, to'garak va jamoalar yuqorida bildirilgan barcha maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuni qayd qilish lozimki, raqs jamoalarining ijodiy faolligi ko'pincha ularga rahbarlik qilayotgan ustozlar jamoasining ijodiy yondashuvi va harakatiga bog'liq bo'ladi. Aynan ular yuqori madaniyat vositachilari sifatida butun jamoaning ma'naviy hayotini aniqlab beradilar.

Ma'lumki, jamoa masalalari bilan o'z vaqtida ko'plab faylasuflar, sosiologlar, o'qituvchi va ruhshunoslar shug'ullanishgan. Jamoaning pedagogik nazariyasi rivojiga P.P.Blonskiy, L.S.Vыgodskiy, N.K.Krupskaya, P.N.Lepeshinskiy, V.I.Soroka-Rosinskiy, S.P.Shaskiyalar o'z vaqtida katta

uluslarini qo'shgan. Jamoada shaxsni shakllantirish nazariyasi boshida A.S.Makarenko[3.56] turgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar ushbu masalani o'rganishda turli yondashuv va talqinlarni qo'llab kelmoqdalar. Xususan, L.S.Novikova [3.35] bolalarning shaxs sifatida kamol topishida bolalar jamoasini eng samarali o'rganish vositalarini qo'llab keldi. T.Ye.Konnikova [3.28] tomonidan taqdim etilgan ilmiy tasavvurlarda jamoaning asosiy maqsadi bevosita bolalarning axloqiy tarbiyasida ko'rinadi.

Zamonaviy o'zgarishlar konkret harakatlarni talab qiladi. Shu bois, bolalar tarbiyasi va ta'limiga qaratilgan barcha ijtimoiy-tarbiya tashkilotlari e'tiborini bu borada kuchaytirish o'ta muhim. Eskicha g'oyalar, xususan: maktab – bilim beradi, turli jamoalar esa, jumladan jismoniy tarbiya – bolalarni jismonan rivojlantiradi, badiiy–estetik o'stiradi, mehnat jamoalari esa mehnat va ishga bo'lgan munosabatlarini tarbiyalaydi degan stereotiplardan bugunda holi bo'lish darkor. Darhaqiqat, hozirda o'z safiga bolalarni kiritgan har bir jamoa belgilab olgan maqsaddan tashqari har bir bolaning shaxsiy fazilat va qobiliyatlarini har tomonlama, ya'ni kompleks ravishda rivojlantirishga qaratilgan.

"Insonning tarbiyasida faqat bir tomoniga urg'u berish noto'g'ri"- degan bir paytlar buyuk psixolog, murabbiy A. S Makarenko. Uning bu so'zlari ham bugunda nihoyat dolzarbdir. Masalaning shunday qo'yilishida bolalar uchun mo'ljallangan xoreografik jamoalarning imkoniyatlari kengligi va naqadar kuchli ekanining guvohi bo'lamiz.

Xoreografik jamoaning badiiy vositalari (tabiati, plastika, musiqa, tasviriy va boshqa) tizimining organik yaxlitligi asosida o'z harakatlarini namoyon etadi. Bolalarning ham badiiy-estetik ham axloqiy darajasining o'sishiga qaratiladi.

Ammo o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib o'sishi uchun (ya'ni hissiyot va intellekt, aqliy va jismoniy darajasining mutanosibligi, erkinlik va intizomlik hissi va h.k.) eng avvalo badiiy- pedagogik jarayonlarning yaxlitligini taqozo etadi. Xususan, qo'llanilayotgan har bir badiiy usul pedagogik nuqtai nazardan isbotlangan, pedagogik vazifa esa mashg'ulotning badiiy xususiyatidan kelib chiqib ushbu vositalar orqali yechilishi lozim bo'ladi.

Bu borada bolaning iste'dodini namoyish etuvchi shaxsiy va betakror xislatlari kashf etilishida ustoz baletmeysterlarning pedagogik vazifasi mavjud imkoniyatlar va shart-sharoitlariga qaratilib, bolalar aniq

yosh guruhiga mo'ljallanishi lozim va bu borada ma'lum tarbiya vositasi va usullari ishlab chiqiladi.

Masalan, ma'lumki bolalarda o'sish jarayonining har bir bosqichida o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Buni inobatga olgan xoreograf-baletmeysterlar turli yoshdagi korreksiya qirralariga o'z e'tiborini qaratadilar. Bolalarning yoshini to'g'ri inobatga olinishi, yoshlarning ruhiy va ma'naviy rivojlanishi uchun yaxshi muhit tayyorlab beradi.

Zamonaviy xoreografiya san'atida bolalar tabiati, yoshi va imkoniyatidan kelib chiqib ular uchun maxsus ishlab chiqilgan, professional ta'lim mezonlariga javob beruvchi raqs harakatlarining katta va kichik miqdori taqsimlab berilgan. Xususan, milliy-sahnaviy, tarixiy-maishiy raqslarning harakati yordamida, rang-barang yuqori saviyadagi aynan bolalar repertuarini ham yaratish mumkin. Shuningdek, professional uslubiyotida mavjud bo'lmagan, biroq aynan bolalar bilan raqs saboqlarini o'zlashtirish va samarali natijalarni beruvchi ma'lum qo'shimcha uslubiy vositalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abramova G. S. Vozrastnaya psixologiya. – M., Pedagogika, 1998.
2. Abrayqulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. – Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – Toshkent, 2003.
3. Avdeyeva L. Tansevalnoye iskusstvo Uzbekistana. – Tashkent, Gosudarstvennoye izd-vo xudojestvennoy literatury Uzbekskoy SSR, 1960.
4. Arshavskiy I. A. Fiziologicheskiye mexanizmy i zakonomernosti individualnogo razvitiya. – M., Pedagogika, 1982.
5. Blonskiy P. P. Izbrannyye pedagogicheskiye i psixologicheskiye sochineniya. – M., 1979.
6. Bojovich L. I. Lichnost i yeye formirovaniye v detskom vozraste. – M., 1968.